

**“IPOTEKA-BANK” AKSIYADORLIK TIJORAT IPOTEKA BANKI**



**“IPOTEKA-BANK” ATIB AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI  
UMUMIY YIG‘ILISHINING MATERIALLARI**

**Toshkent, 25 fevral 2025 y.**

**“Ipoteka-bank” ATIB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi uchun  
materiallar ro‘yxati**

1. “Ipoteka-bank” ATIB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kun tartibidagi masala.
2. “Ipoteka-bank” ATIB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi reglament.
3. Muammoli kreditlarni qisman hisobdan chiqarish bo‘yicha bank Boshqaruvining taklifi haqida qisqacha ma’lumot.
4. “Ipoteka-bank” ATIB Ustaviga kiritilayotgan o‘zgartirishlarni haqida qisqacha ma’lumot.

1. KUN TARTIBIDAGI MASALA:

1. Muammoli kreditlarni qisman hisobdan chiqarish bo'yicha bank Boshqaruvining taklifini tasdiqlash.
2. "Ipoteka-bank" ATIB Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirishlarni tasdiqlash.

2. AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHI TO'G'RISIDAGI REGLAMENT.

**Joylashuvi:**

**Shahrisabz ko'chasi, 30**

**Toshkent sh.**

**Sana:**

**2025-yil 25-fevral**

**Boshlanish vaqti: 11:00**

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish

(evote.uz elektron ovoz berish tizimidan foydalangan holda)

10:00 – 11:00

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining ochilishi

11:00

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining yopilishi

12:00

### 3. MUAMMOLI KREDITLARNI QISMAN HISOBDAN CHIQRISH BO‘YICHA BANK BOSHQARUVINING TAKLIFI HAQIDA QISQACHA MA‘LUMOT.

Jahon bozorida tekstil mahsulotlari narxi tushishi natijasida O‘zbekistondagi paxta-klasterlarining moliyaviy holati yomonlashgan. Bu esa, klasterlar va ularga aloqador tashkilotlarga ajratilgan kreditlarining to‘lanishida muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda, “Ipoteka-bank” ATIB tomonidan paxta-klasterlarining loyihalarini moliyalashtirish to‘xtatilgan. Shu sababli, paxta-klasterlari va ularga aloqador tashkilotlarga 30% chegirma asosida jami qarzdorliklarni so‘ndirish taklifi berilgan.

Bankning ayrim mijozlari (paxta klasterlar va ularga aloqador tashkilotlar) tomonidan 2024 yil 1 dekabr holatiga jami kredit qarzdorligining 70% ini so‘ndirish sharti bilan qolgan 30% iga chegirma taqdim qilinishini so‘rab murojaat qilingan. Shundan, qarzning bir qismi mijoz tomonidan so‘ndiriladi va qolgan qismi yon berish shartnomasiga asosan boshqa tijorat banki tomonidan sotib olinadi.

2015 yil 14 iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 2696-sonli Nizomiga asosan muammoli kreditlarni hisobdan chiqarish masalasi Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan qarorga ko‘ra hisobdan chiqarilishi mumkinligi belgilab ketilgan.

#### 4. “IPOTEKA-BANK” ATIB USTAVIGA KIRITILAYOTGAN O‘ZGARTIRISHLARNI HAQIDA QISQACHA MA’LUMOT.

Amaldagi Ustavga muvofiq (14.12-modda) Bank xodimlari mehnat shartnomalarini Boshqaruv raisi bilan tuziladi, Bank filiallari xodimlari bilan esa mehnat shartnomalari Bank filiallari rahbarlari bilan tuziladi. Boshqaruv raisining ushbu vakolatlari ishonchnoma asosida boshqaruv raisi o‘rinbosarlaridan biriga topshirilishi mumkin.

Bankda amalga oshirilgan markazlashtirish va bankning markaziy apparatida xodimlar sonining ko‘payishi munosabati bilan, faqat Boshqaruv raisi tomonidan mehnat shartnomalarini tuzish vakolatlarining cheklanishini istisno qilish maqsadida Ustavning ushbu bo‘limiga o‘zgartirishlar kiritish zarur.

Ustavning mazkur qoidasini ko‘rib chiqish chog‘ida, shuningdek, Boshqaruv raisining bank xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzish bo‘yicha vakolatlari Ustavning 14.22.5-kichik bandida, shuningdek vakolatlar berish vakolatlari ko‘rsatilganligi qayd etildi. Shu munosabat bilan Nizomdan 14.12-bandni chiqarib tashlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Mazkur o‘zgartirishlar natijasida Boshqaruv raisining har bir o‘rinbosari o‘zini yo‘nalishiga tegishli xodimlari bilan mehnat shartnomani tuzish huquqiga ega bo‘ladi. Ustavga kiritilayotgan o‘zgartirish OTP Bosh boshqarmasining yuridik bo‘limi tomonidan oldindan ma’qullangan. (Bundan tashqari, mazkur o‘zgartirish Bank Boshqaruvi tomonidan oldindan ko‘rib chiqilgan va dastlabki ma’qullangan (2024-yil 20-dekabrda 225-sonli ma’lumotnoma).